

## UY XO'JALIKLARI IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNING AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

**Odilov Umid Abduxalimovich**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari  
fakulteti "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası o'qituvchisi

tel: +998-90-520-00-52,

e-mail: [umid\\_odilov@tues.uz](mailto:umid_odilov@tues.uz)

ORCID: [https:// https://orcid.org/0009-0005-3171-6014](https://orcid.org/0009-0005-3171-6014)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada uy xo'jaliklarining iqtisodiy mohiyati, ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida xo'jalik yurituvchi subyekt sifatidagi o'rni hamda aholi bandligini ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida uy xo'jaliklarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, qurilish hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari sohalarida bandlikni shakllantirishdagi roli statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, uy xo'jaliklari sektorini rivojlantirish orqali o'zini o'zi band qilishni kengaytirish, hududiy bandlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari uy xo'jaliklarini moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish aholi bandligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** uy xo'jaliklari, aholi bandligi, o'zini o'zi band qilish, bozor iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, moliyalashtirish mexanizmlari.

### **Kirish**

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini kengaytirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu me'yorlar Konstitutsiyanizda alohida mr'yor sifatida kiritilgan bo'lib, ushbu jarayonda uy xo'jaliklari iqtisodiy tizimning muhim subyekt sifatida maydonga chiqib, aholining katta qismini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatiga jalb etmoqda. Ayniqsa, rasmiy bandlik imkoniyatlari cheklangan hududlarda uy xo'jaliklari aholi uchun asosiy daromad va bandlik manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Uy xo'jaliklari axolini aksr qismi qishloq xududlarda joylashgani,

axoli tarihan qishloq xo'jalik maxsulotlari etishtirish bilan shug'ullanganligi bu sohani iqtisodiyotimizning ajralmas qismi aylantirgan.

O'zbekiston sharoitida qishloq joylarda yashovchi aholining salmoqli qismi qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va xizmatlar sohasida aynan uy xo'jaliklari orqali band bo'lib kelmoqda. Shu bois, uy xo'jaliklarini alohida xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida rivojlantirish, ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va bandlikdagi rolini kuchaytirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi uy xo'jaliklarining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, ularning aholi bandligini ta'minlashdagi o'rnini tahlil qilish hamda mavjud statistik ma'lumotlar asosida ushbu sektorning iqtisodiyotdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

### Asosiy qism

Uy xo'jaliklarining iqtisodiy mohiyati va bozor iqtisodiyotidagi o'rni haqida turli iqtisodiy qarashlar mavjud. Turli tadqiqotchilarning uy xo'jaligi borasidagi fikrlarini inobatga olgan holda hamda O'zbekistonda yuzaga kelgan ushbu iqtisodiy subyektga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Uy xo'jaligi – muayyan manzilda istiqomat qiluvchi va o'zlarining moliyaviy mablag'larini moddiy ehtiyojlarini qondirish hamda kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun o'zaro birgalikda tasarruf qilish maqsadida birlashgan fuqarolar yoki oilalardan iborat.<sup>1</sup> Uy xo'jaligi — bu bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan birgalikda yashash, ishlab chiqarish, iste'mol qilish va daromadlarni taqsimlash jarayonlarini amalga oshiruvchi iqtisodiy birlikdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari nafaqat iste'molchi, balki ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi subyekt sifatida ham faoliyat yuritadi.

Uy xo'jaliklarini alohida xo'jalik subyekti sifatida rivojlantirish uchun ularni barcha zarur ishlab chiqarish vositalari, moliyaviy resurslar va institutsional sharoitlar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, uy xo'jaligi joylashgan hududning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, iqtisodiy xavfsizligi va hudud iqtisodiyotida tutgan o'rni ham ushbu sektor faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, uy xo'jaliklari sektorining barqaror rivojlanishi uchun ularning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning mavjudligi va samarali ishlashi muhim omil hisoblanadi. Uy xo'jaliklarini moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3777-sonli "Xar bir oila-Tadbirkor" davlat dasturi,<sup>2</sup>

<sup>1</sup>G'ulomov Sh. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va xavfsizligini ta'minlashda uy xo'jaligi sektorining o'rni va roli ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2023, 6 (166)

<sup>2</sup> 2018-yil 7-iyun dagi PQ-3777-sonli "Xar bir oila-Tadbirkor" davlat dasturi,

PQ-54-son “Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>3</sup> Vazirlar Maxkamasining 2025-yil 28-martdagi 191-son “Aholi tomorqalari va dehqon xo‘jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanishning qo‘shimcha chora-tadbirlari“ to‘g‘risida qarorlar asosida kreditlar va Vazirlar Mahkamasining 252-sonli <sup>4</sup>qarori asosida subsidiyalar berish belgilanib yuqoridagi qarorlar asosida uy xo‘jaliklarini moliyalshtirish tartibi belgilangan. Shuningdek axoli bandligini ta‘minlash va qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarishno ko‘paytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-20-son “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi<sup>5</sup>da qaror” asosida qishloq xo‘jalik maxsulotlari etishtirish uchun uzoq muddatli ijaraga yerlar ajratildi.

2025 yilning boshidan 2025 yil 01.09 xolatoga 5 million aholining bandligi ta‘minlandi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev bugun, 29 avgust kuni Toshkentdagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib o‘tayotgan mamlakat mustaqilligining 34 yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbirida ma‘lum qildi.

2025 01.09 yilda jami band axoli 14261.9(ming kishi)ni tashkil qilgan bo‘lib<sup>6</sup>, shundan uy xo‘jaliklarida o‘zini-o‘zi band qilgan fuqorolar jami 5053823 kishi bo‘lib shundan 2025 yil 01.09 xolatiga 1059447 kishi ro‘yxatdan o‘tgan.

Jadval 1. O‘zini-o‘zi band qilgan fuqorolar (faoliyat yo‘nalishi boyicha) 2025 yil 04.09 xolatiga <sup>7</sup>

Xudud	Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida xizmatlar	Sanoat va xalq xo‘jaligi maxsulotlari i/ch yo‘nalishi bo‘yicha xizmatlar	Maishiy xizmatlar	Ijtimoiy va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishidagi xizmatlar	JAMI
-------	--	--	-------------------	---	------

<sup>3</sup> 2021-yil 16-dekabrda PQ-54-son “Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”Qarori

<sup>4</sup> Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 maydagi 252-sonli Qarori

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrda PQ-20-son “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi Qarori

<sup>6</sup> [stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2](http://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2)

<sup>7</sup> [solliq/sections/solliq-qo-mitasi-vakolatidagi-ochiq-ma-lumotlar?page=2](http://solliq/sections/solliq-qo-mitasi-vakolatidagi-ochiq-ma-lumotlar?page=2)

O'zbekiston Respublikasi	375898	208976	361299	113274	1059447
--------------------------	--------	--------	--------	--------	---------

Yuqoridagi jadval asosida Qishloq xo'jaligi yo'nalishida xizmatlarda 375898 fuqoro o'zini ozi band qilgub bo'lib eng ko'p ish o'rni yaratgan tarmoq bo'lsa Ijtimoiy va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishidagi xizmatlar yo'nalishida eng kam ,ya'ni 113274 fuqoro o'zini-o'zi band qilgan.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida uy xo'jaliklari bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat iste'molchi, balki aholi bandligini ta'minlashda faol ishtirok etuvchi muhim iqtisodiy subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida uy xo'jaliklari orqali o'zini o'zi band qilish shakli keng tarqalgan bo'lib, bu holat qishloq xo'jaligi, qurilish hamda xizmatlar sohasida bandlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlar va tahlillar uy xo'jaliklari sektorining aholi bandligidagi ulushi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, 2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra o'zini o'zi band qilgan fuqarolar sonining 5 milliondan ortishi hamda ularning katta qismi uy xo'jaliklari faoliyati bilan bog'liqligi mazkur sektorning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Faoliyat yo'nalishlari kesimida qishloq xo'jaligi xizmatlari eng ko'p ish o'rinlarini yaratgan bo'lib, bu tarixiy-an'anaviy bandlik shakllari bilan uyg'unlikda rivojlanayotganini anglatadi.

Shuningdek, uy xo'jaliklarini moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi, tomorqalardan samarali foydalanishga oid qarorlar va subsidiyalash mexanizmlari uy xo'jaliklari bandligini kengaytirishda muhim institutsional asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu chora-tadbirlar uy xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, ularni kichik tadbirkorlik subyektiga aylantirish va hududiy bandlikni oshirish imkonini bermoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, uy xo'jaliklari sektorini rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Shu bois, uy xo'jaliklarini moliyaviy, institutsional va bilim asosida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ayniqsa, qishloq hududlarida bandlikni oshirish siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi lozim.

### **Adabiyotlar.**

1.G'ulomov Sh."O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va xavfsizligini ta'minlashda uy xo'jaligi sektorining o'rni va roli 2023 yil ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ jurnali.

2. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyun dagi PQ-3777-sonli “Xar bir olila-Tadbirkor” davlat dasturi

3. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-dekabrdagi PQ-54-son “Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori

4. Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 maydagi 252-sonli Qarori

5. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi PQ-20-son “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi Qarori

6. [Stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2)

7. [Soliq.uz/soliq/sections/soliq-qo-mitasi-vakolatidagi-ochiq-ma-lumotlar?page](https://soliq.uz/soliq/sections/soliq-qo-mitasi-vakolatidagi-ochiq-ma-lumotlar?page)